

**SIYOSIY INSTITUTLARNING
DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI**

Baxromova Laylo Rayim qizi

Toshkent davlat yuridik

universiteti talabasi,

+998 941891807,

laylorayimovna@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada siyosiy institutlarning rivojlanish bosqichlari tarixan o'rganildi. Bugungi kunda siyosiy institutlarining roli, ahamiyatini tahlil qilish orqali ularning ijobiy tomonlari hamda kamchiliklari tadqiq qilindi. Siyosiy institutlarni samarali rivojlantirish maqsadida xorijiy tajriba o'rganildi.*

Kalit so'zlar: *davlat, demokratik tamoyil, demokratik davlat, jamiyat qadriyati, ko'ppartiyaviylik, siyosiy institut, siyosiy madaniyat.*

Abstract: *The stages of development of political institutions are studied historically in the article. By analyzing the role and importance of political institutions today, their positive aspects and shortcomings were studied. Foreign experience was studied in order to effectively develop political institutions.*

Key words: *state, democratic principle, democratic state, social value, multi-party system, political institution, political culture.*

Аннотация: *В статье исторически изучаются этапы развития политических институтов. Путем анализа роли и значения политических институтов сегодня были изучены их положительные стороны и недостатки. Зарубежный опыт был изучен в целях эффективного развития политических институтов.*


Ключевые слова: *государство, демократический принцип, демократическое государство, социальная ценность, многопартийность, политический институт, политическая культура.*

Bugungi kunda jamiyatimizda turli qarashlar, g'oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanishni kuzatishimiz mumkin, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g'oya va mafkuralariga ham birdek katta ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosatchi Karl Yaspersning "har bir davr o'zicha bir tahdiddir" degan so'zlari bugun yana bir bor isbotini topmoqda. Inson maxluqotlar ichida oliysi, ammo bu-uni xatolardan holi ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o'zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish-insonlarning o'zlari tomonidan turli institutlar, ya'ni, tom ma'nodagi "tartibga solish qurilmalari" tashkil etilmoqda.

Siyosiy institutlar siyosiy jarayonlar ishtirokchilarining yaxlitlangan, barchaga ma'lum bo'lgan, amalda qo'llanuvchi, e'tirof etiluvchi o'zaro ta'sir va aloqalarning shakli, siyosiy harakatlarni amalga oshiruvchi siyosiy munosabat ishtirokchilarining majmui hisoblanadi. Ushbu siyosiy institutlar tarkibiga e'tirof etilgan siyosiy me'yorlar va qadriyatlar, siyosiy xulq-atvor modellari, siyosiy munosabatlarni tashkil etish, shakllantirish usullari, me'yorlar va qoidalar amalga oshirilishi ustidan nazorat ham kiradi. Siyosiy institutlar kategoriyasi ijtimoiy subyektlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi, muayyan subyektlarning manfaatini ko'zlab ish ko'ruvchi davlat, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy muassasa va tashkilotlardir. Ko'pgina hollarda, siyosiy institutlar **rasmiy tashkilotga** aylanadi va siyosat sohada yetkachilikni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Natijada, ularda moddiy belgilar paydo bo'ladi: o'zining binosi, muhri, faoliyat tartibi, tashkilot nomidan so'zlash huquqiga ega bo'lgan shaxslari va hokazo. Siyosiy va siyosiy bo'lmagan institutlar orasidagi farq nisbiydir. Ular mamlakatlar, davrlar va vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. Siyosiy institutlarga davlat, armiya, siyosiy partiya, tashkilotlar, din va ta'lim tizimi kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Siyosiy institutlarning eng yirik ko'rinishi bu **davlatdir**. Chunki eng katta siyosiy hokimiyatni amalga oshiruvchi, eng katta siyosiy kuchga va ta'sirga ega bo'lgan institut bu davlatdir. Siyosiy institutlar kishilar ijtimoiy hayotining

tashkiliy shakli, fuqarolar esa siyosiy institutlarning ijtimoiy manbai hisoblanadi. Siyosiy institutlarning asl mohiyatini davlat, parlament, hukumat, siyosiy muassasalar va partiyalar tashkil etadi.

Siyosiy institutlar tarixiga nazar soladigan bo'lsak, siyosiy institutlar rivojlanish davri bosqichlari quyidagilardan iborat.



Qadimgi siyosiy institutlar: *Siyosiy tashkilotlar insoniyat sivilizatsiyasi paydo bo'lganidan beri mavjud. Mesopotamiya, Qadimgi Misr, Qadimgi Yunoniston va Rim imperiyasi kabi qadimgi jamiyatlarda murakkab siyosiy tizimlar mavjud bo'lgan. Bular monarxiya va shahar-davlatlardan tortib, respublika va imperiyalargacha bo'lib, ularning har biri o'ziga xos boshqaruv institutlariga ega bo'lgan.*

Feodalizm va monarxiyalar: *O'rta asrlarda Yevropada feodalizm hukmron siyosiy tizim edi. Feodal jamiyatlari tepasida qirollar yoki monarxlar, keyin esa zodagonlar, ritsarlar va dehqonlar joylashgan iyerarxik tuzilish bilan ajralib turgan. Monarxiyalar ko'pincha, katolik cherkovi kabi diniy institutlarning ko'magida katta hokimiyatga ega bo'lgan. Bu esa diniy institutlarning siyosiy institute sifatida katta ta'sir doirasini bildiradi.*

Milliy davlatlarning yuksalishi: *Uyg'onish va Ma'rifat davrlarida milliy davlatlarning paydo bo'lishi va feodalizmning tanazzulga uchrashi kuzatilgan. Monarxiya hokimiyatiga shaxsiy huquqlar, demokratiya va ijtimoiy shartnoma g'oyalari qarshi chiqqan bo'lib, bularning natijasida parlamentlar, sudlar va byurokratiya kabi zamonaviy siyosiy institutlarning rivojlanishiga olib kelgan.*

Demokratik inqiloblar: XVIII asr oxiri va XIX asrlar Amerika inqilobi (1775-1783) va Fransiya inqilobi (1789-1799) kabi bir qancha demokratik inqiloblarning bo'lishi davlat boshqaruvidagi siyosiy institutlarning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu voqealar vakillik hokimiyati, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi kabi demokratik tamoyillar va institutlarning qaror topishiga olib kelgan. [3]

Mustamlakachilik va post-mustamlakachilik: XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropa mustamlaka imperiyalarining kengayishi mustamlaka qilingan hududlarga siyosiy institutlarni kirib borishiga va siyosiy institutlarning keng yoyilishiga sabab bo'ldi. Mustamlakachilikdan keyingi ko'plab davlatlar mustaqillikka erishgandan so'ng, barqaror siyosiy tizimlar o'rnatish uchun kurash olib bordilar, bu esa beqarorlik, avtoritarizm va ziddiyatli davrlarga olib keldi. Bu davrlarda ushbu harakatlarning tub harakatlanuvchi kuchi shubhasiz, siyosiy institutlar bo'lgan. [3]

Zamonaviy siyosiy institutlar: Bugungi kunda, siyosiy institutlar turli madaniy, tarixiy va ijtimoiy-iqtisodiy kontekstlarni aks ettiruvchi butun dunyoda keng tarqalgan. Ularning turli xil ko'rinishlari mavjud. Siyosiy institutlarning asosini bugungi davrda, asosan, demokratik qarashlar, g'oyalar tashkil etmoqda. Shu sababli ham bugungi kun siyosiy institutlari nisbatan demokratik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi.

Siyosiy institutlar uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan bo'lib, ushbu atama fanga **XVII asr oxirlari ingliz faylasufi**, siyosiy arbobi **Jonn Lokk** tomonidan kiritilgan. [3]

Siyosiy institut-bu aniq maqsadga yo'naltirilgan, tashkiliy va ijro tuzilmasi hamda apparatiga ega siyosiy tashkilot"-, deydi **A.M.Lopuxov**. [3]

Bugungi kunga kelib, siyosiy institutlar **BMT** a'zolari bo'lgan davlatlar sonidan kelib chiqqan holda **193** tani tashkil qiladi degan qarashlar ham mavjud. Bunda ular faqat eng yirigi bo'lmish davlat miqyosida qaralgani uchun ham 193ta deb belgilangan. Ammo, aslida siyosiy institutlar soni mingga yaqin.

Tabiiy savol tug'ilishi mumkin, aslida siyosiy institutlarga ehtiyoj bormi, ularni tashkil etishdan, tuzishdan asosiy maqsad nima va ular qanday afzaliklarga ega?

Siyosiy institutlarning qator **afzallik** va **kamchilik** jihatlari mavjud va bu turli davlatlarda ulardagi siyosiy, mafkuraviy g'oyalar boshqaruv tizimiga, xalqning ushbu jarayonlarda qay darajada ishtirok etishiga qarab turli xil bo'ladi. **Siyosiy institutlarning** umume'tirof etiladigan quyidagi **afzalliklari** mavjud.

Shuningdek, kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ular quyidagilar:

birinchidan, siyosiy institutlarning yagona, avtokratik g'oya, bitta partiya yoki bitta shaxs ta'siriga tushib qolish ehtimolining mavjudligi butun jamiyatga xavf tug'dirishi mumkin.

Ikkinchidan, siyosiy institutlarda korrupsion holatlarning ko'pligi ham eng og'riqli nuqtalardan biridir. Aynan, siyosiy institutlarda korrupsion holatlarning ko'pligining sababi esa siyosiy institutlarning ta'sir kuchi, doirasining kengligi o'z g'oya va maqsadlarini amalga oshirishni ko'zlagan jamoalarga katta imkon bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ular asosan, siyosiy ta'sir o'tkazish kuchiga ega bo'lish uchun siyosiy institutlarni tanlashadi. Agarda, ularning maqsadi, g'oyasi faqat o'z doirasi manfaatigagina asoslangan bo'lsa, bu qolgan oddiy xalq uchun qimmatga tushishi aniq.

Siyosiy institutlar siyosiy jarayon subyekti sifatida katta siyosiy kuchga egadir. Bu aynan, davlat boshqaruvi sohasida yetakchi ahamiyat kasb etadi. Butun davlat, mamlakatdagi siyosiy jarayonlar ushbu siyosiy guruhlarining harakati, g'oyasi, mafkurasi asosida harakatga keladi. Shuning uchun ham siyosiy jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishi siyosiy institutlarning bosh g'oyasi, birdamligi va faoliyatiga bog'liq.

Bu butun jamiyat va davlatda faqat yagona bir g'oya bo'lishi kerak degan ma'noni anglatmaydi. Bilamizki, siyosiy jarayonlar murakkab bo'lib, butun jamiyat hayotini qamrab oladi va bu vaqtda, yagona bir g'oyadagina iborat siyosiy institut mavjud bo'lishi imkonsiz. Shu sabab, turli siyosiy institutlar

birlashib, turli sohalarni qamrab olgan holda faoliyat yuritishadi. Butun siyosiy institutlarning yagona g'oyadagina iborat bo'lishi demokratik jamiyatga xos bo'lgan xususiyat emas. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 12-moddasida** O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas deya belgilanishi yuqoridagi fikrimizga asos bo'la oladi.[1]

Ushbu moddada belgilanganidek, jamiyat qachonki fikrlar xilma-xilligiga asoslangan bo'lsa, rivojlanadi. Sababi, jamiyat, umuman ijtimoiy munosabatlar, siyosat murakkab tarkibli bo'lib, faqat bir sohanigina qamrab olmaydi. Siyosiy institutlarni asosiy vujudga keltiruvchi omil-bu **siyosiy madaniyatdir**. Siyosiy madaniyat esa jahon umumiy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, siyosiy tajriba, siyosiy bilimlar va his-tuyg'ular darajasi, siyosiy subyektlar xulq-atvori va faoliyati namunalarining bosh ko'rsatkichi mamlakat, sinf, millat, ijtimoiy guruh siyosiy turmush tarzining umumiy yig'indisidir.

Siyosiy institutlar har qanday davlat va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotdir. Siyosiy institutlarning mavjudligi rivojlangan jamiyatning talabi. Siyosiy institutlar tarkibining xilma-xilligi jamiyat hayotining barcha sohasini qamrab olish maqsadida tuzilganligi uchun ham ahamiyatlidir. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, siyosiy institutlar xilma-xillikka asoslanishi lozim. O'zbekiston sharoitida bugungi kunda siyosiy institutlarda qator kamchiliklar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3. Farmonov R., Jo‘rayev U., Ergashev Sh. “Jahon tarixi XVI-XIX asrning 60-yillari”. Darslik, Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2019,18-b.
4. Odilqoriyev X. T, Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik: Darslik. -T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. -93,96,106-b.